

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK:6Π2.15:371(575.1)

DJURAYEVA SURAYYO VOSIQ qizi

**KOLLEJDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASI
FANLARINI O'QITISHDA XORIJIY TAJRIBANI TADQIQ
ETISH ("Toshkent arxitektura-qurilish kolleji" misolida)**

5A230107 – " Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari"

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
dots. I.Abdullayeva

Toshkent-2018

Annotatsiya

Mazkur dissertatsiya ishida ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati, imkoniyatlari, xorijiy davlatlar va O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari sohasi fanlarini o'qitishning usullari o'rganildi, ta'lim tizimida AKTni qo'llashni metodik asoslari, elektron darslikni joriy etishning o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish, kompyuterli elektron darslikni yaratish va qo'llash bosqichlari tahlil qilindi. Kollejlarda axborot texnologiyalari sohasi fanlarini o'qitishni takomillashtirish yo'llari ishlab chiqildi. Jumladan, Toshkent arxitektura-qurilish kasb-hunar kollejida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitish usullari o'rganilib, Auto Play Media Studio 8 dasturi asosida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan elektron o'quv qo'llanmani yaratish tavsiya etildi.

Annotation

In this dissertation the importance of information-communication technologies in the educational process, the methods of teaching the subjects of ICT in the foreign countries and the Republic of Uzbekistan, the methodological basis of ICT application in the education system, , the creation of software tools, the creation and application of a computerized electronic textbook. Colleges have developed ways to improve the teaching of information technology. In particular, in the Tashkent Architectural and Construction Professional College, the methods of teaching "Computer Science and Information Technologies" were studied, and it was recommended to create an electronic educational manual on "Informatics and Information Technology" on the program Auto Play Media Studio 8.

Magistrlik dissertatsiya ishi "Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

N 3 - sonli bayonnoma « 15 » May 2018y

Ilmiy rahbar: dots. *Abdullayeva I.*


imzo

16.06.18
sana

Taqrizchi: dots. *Azamatov O.*


imzo

16.06.18
sana

Talaba:

Djurayeva S.


imzo

16.06.18
sana

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARINING TADBIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.	
1.1 Toshkent arxitektura qurilish kasb-hunar kollejining texnik-iqtisodiy tavsifi	11
1.2 Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	16
1.3 Rivojlangan xorijiy davlatlar va O'zbekistonda axborot texnologiyalari sohasi fanlarini o'qitishning qiyosiy tahlili.	21
I bob yuzasidan xulosalar	34
II BOB. TA'LIMDA INNOVATSION KOMPYUTER TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	
2.1 Ta'lim tizimida AKTni qo'llashni metodik asoslari	35
2.2 Elektron darsliklarni joriy etishning o'quv –uslubiy ta'minotini yaratish	43
2.3 Kompyuterli elektron darslikni yaratish va qo'llash bosqichlari	
II bob yuzasidan xulosalar	52
III BOB. KOLLEJLARDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI SOHASI FANLARINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.	
3.1 Toshkent arxitektura qurilish kasb-hunar kollejida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini AKT yordamida o'qitish usullari	66
3.2 Auto Play Media Studio 8 dasturi asosida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan elektron o'quv qo'llanmani yaratish	77
III bob yuzasidan xulosalar	87
XULOSA VA TAKLIFLAR	88
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	91
ILOVALAR	93

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarinig inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga kirib borishi, axborot oqimining keskin ravishda ortib borishi, axborot almashinuvi, boshqaruv va texnologik jarayonlarning avtomatlashtirish ko‘lamini kengayib borishi, umuman aytganda jamiyatni axborotlashuvi jarayonining jadallashib borishi, har bir mutaxassisdan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish usul va vositalarini bo‘lishini talab etmoqda. U qaysi soxada ishlashidan qat’iy nazar, o‘z vazifasini zamon talabi darajasida bajarishi uchun axborotga ishlov beruvchi vositalarni, ularni ishlatish uslubiyotini bilishi va ularda ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur. Shu sababli bugungi kunda Respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub isloxlarning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari aniq belgilab olingan bo‘lib, ushbu vazifalar orasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘qituvchi – pedagog xodimlari o‘z kasbiy faoliyatlarida samarali foydalana olishlari o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida, jumladan, quyidagilargi ta’kidladi: «Avvalgi uchrashuvlarda ta’lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta’limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berilgan edi.

Bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekani sababli ushbu sohadagi ishlar shaxsan Bosh vazirga yuklatilgan.

Yana bir muammoni hal etish ham o‘ta muhim hisoblanadi: bu - pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va